

## IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK




### FAOLIYAT YURITAYOTGAN KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TAHLILI


**Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2025- yilning 1- aprel holatiga 14 473 tani tashkil etdi. (2024 yilning shu davriga nisbatan 8,4 % ga kamaydi).

#### Viloyatda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) (birlikda)




2025- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) soni jami 14 473 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 867 tani tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko‘pi Jizzax shahrida 4 022 tani (yoki jamiga nisbatan 27,8 %) ni, Sharof Rashidov tumanida 2 087 tani (14,4 %) va Zomin tumanida 1 245 tani (8,6 %) ni tashkil qildi.



**Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**  
*2025- yilning yanvar-mart holatiga (jamiga nisbatan % da)*  
*(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)*

2023-yil




2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi 66,1 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1 000** aholiga 9,4 birlikni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida 867 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 77,8 % ini tashkil qilganligini ko'rsatmoqda.

2024-yil



*2025- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da*

*Savdo*




*Sanoat*



*Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi*




*Qurilish*



*Boshqalar*



2025-yil



## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 32,6 %), sanoat sohasida (11,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida (25,4 %), qurilishda (6,0 %) va boshqalar (24,2 %) tashkil etilgan.

2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3 434,6 mlrd so'mni (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 66,9 %) tashkil qilib, 2024 yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga kamaydi;

– qurilish ishlari hajmi 1 231,7 mlrd so'mni (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 86,8 %) va 2024 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 104,7 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1 644,0 mlrd so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 22,9 %) tashkil qildi;

– ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3 632,6 mlrd so'mni tashkil qilib, (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 74,8 %) 2024 yilning yanvar-martiga nisbatan 9,5 foizga o'sdi;

– chakana tovar aylanmasi 488,1 mlrd so'mni (jami chakana tovar aylanmasining 20,8 %) 2024 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 120,1 foizni tashkil qildi;

– tovarlar eksport hajmi 34,1 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 84,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 46,4 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 14,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;


– avtomobil transportida 8,1 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 93,6 %) 2024 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 21,0 ming yo'lovchi tashilib (umumiy yo'lovchi tashishdagi ulushi 94,9 %) 2024 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 101,6 foizni tashkil qildi;

2025- yilning yanvar-martida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi – 66,1 % ni, sanoatda – 22,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 97,8 % ni, qurilishda – 86,8 % ni, tashqi savdo aylanmasida – 22,3 foizni tashkil qildi.


## Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda iqtisodiy tarmoqlari kesimida ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

**2025- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (546,7 mlrd so'm), Sharof Rashidov (225,8 mlrd so'm) va Forish (122,0 mlrd so'm) tumanlarida kuzatildi.

**2025- yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (833,3 mlrd so'm), Sharof Rashidov (359,8 mlrd so'm), G'allaorol (189,1 mlrd so'm) va Baxmal (183,4 mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2025- yilning yanvar-mart oylarida viloyat iqtisodiyotida  
kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi, % da**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>	<i>Qishloq xo‘jaligi</i>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>22,9</b>	<b>86,8</b>	<b>74,8</b>	<b>97,8</b>
<i>shahar:</i>				
Jizzax	28,6	79,0	52,1	99,4
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	100,0	70,3	75,7	99,5
Baxmal	100,0	96,6	79,9	99,7
G‘allaorol	1,2	97,5	75,0	96,3
Sharof Rashidov	85,8	100,0	86,3	99,0
Do‘stlik	12,4	93,7	78,6	99,4
Zomin	44,1	76,9	69,4	92,6
Zarbdor	64,4	97,9	72,9	98,9
Zafarobod	24,6	72,8	77,1	97,5
Mirzacho‘l	41,7	89,0	62,4	99,2
Paxtakor	15,1	93,1	67,6	99,2
Forish	61,4	92,2	82,0	97,5
Yangiobod	99,3	85,2	72,0	99,7

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko‘rsatkichlari sohalar bo‘yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog‘ida kichik tadbirkorlikning eng kam ulushi G‘allaorol (1,2 %) tumani hissasiga, eng ko‘p ulushlar esa Arnasoy (100,0 %), Baxmal (100,0 %), Yangiobod (99,3 %) tumanlari hissasiga.

- qurilish tarmog‘ida kichik tadbirkorlikning eng kichik ulushlari Arnasoy (70,3 %), Zafarobod (72,8 %), Zomin tumanlari (76,9 %) va Jizzax shahriga (79,0 %) to‘g‘ri keldi.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahri (52,1 %) va Mirzacho‘l tumani (62,4 %) da qolgan hududlarga nisbatan kichik bo‘lishiga qaramasdan, hajmi qolgan hududlardan yuqori o‘ringa ega bo‘ldi.

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo‘shimcha qiymatning asosiy qismi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirildi.